



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC

SOLUTIONS

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI

Farangiz Mamirova Davronboy qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

"Xalqaro huquq" fakultetining 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Butun dunyo miqyosidagi jamiki davlatlarning konstitutsiyasi - bu o'sha davlatlarning huquqiy poydevori, mustahkam tayanchi hamda jamiyatning rivojlanish yo'nalishini belgilovchi asosiy hujjatdir. Hozirgi taqdim etilayotgan ushbu maqolada, respublikamiz konstitutsiyasining tarixiy sayohati, uning davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyatiga ta'siri haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy o'zgarish, huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati, huquq va erkinliklar, konstitutsiyaviy taraqqiyot, qonunchilik tizimi.*

ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Мамирова Фарангиз Давронбоевна

Студентка 1го курса факультета Международного права

Университета мировой экономики и дипломатии

Аннотация: Конституция всех мировых стран является юридической основой этих государств, фиксированным документом, который определяет направление развития общества. Эта статья о историческом путешествии Конституции Республики, ее влиянии на государственное управление и гражданское общество.

Ключевые слова: Конституция Республики Узбекистан, Конституционные изменения, правовые реформы, государственное управление, гражданское общество, право и свободы, конституционное развитие, законодательная система.

THE HISTORY OF THE CREATION OF THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Mamirova Farangiz Davronboevna

*1st year student of the International Law Faculty of the
University of World Economy and Diplomacy*



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Abstract: The Constitution of all the world-global countries is the legal basis of those states, a fixed document that determines the direction of the development of society. This article is about the historical journey of the Constitution of the Republic, its impact on public administration and civil society.

Keywords: Constitution of the Republic of Uzbekistan, constitutional change, legal reforms, public administration, civil society, law and freedoms, constitutional development, legislative system.

Kirish

Konstitutsiya – bu shunchaki hujjat emas, balki davlatning kelajagini belgilovchi asosiy me'yoriy huquqiy manba. Mustaqillikka erishgan har bir xalq o'zining Konstitutsiyasini yaratish orqali huquqiy va siyosiy tizimining poydevorini mustahkamlaydi. Ammo vaqt o'tishi bilan mamlakatimizda yuz bergan turli ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, ushbu asosiy qonunga mos ravishda tuzatishlar kiritish zaruratini tug'dirdi. Hozirgi kunga qadar Konstitutsiyaga 16 marotaba o'zgartirish kiritilgan. Bu o'zgarishlar mamlakatni modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va xalqaro huquq normalariga moslashish jarayonlarining bir qismi sifatida amalga oshirildi. Ushbu maqolada, Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish jarayonlari va sabablari hamda ularning mazmuni va natijalari atroficha tahlil qilinadi. Shuningdek, Konstitutsiyaning harakatdagi huquqiy mexanizmlarini mustahkamlashga qo'shgan hissasi ham ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi

O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi 1990-yil 20-iyunda "O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik deklaratsiyasi"ning qabul qilinishi munosabati bilan bevosita ilgari surilgan edi. Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida Mustaqillik deklaratsiyasining muhim tamoyillari asosida davlatning yangi Konstitutsiysi ishlab chiqilishi lozim degan xulosaga kelindi. Sessiya O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezident Islom Abdug'aniyevich Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida qaror qabul qildi. Uning tarkibiga deputatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning vakillari, davlat hamda jamoat tashkilotlari, korxonalar, xo'jaliklarning rahbarlari, taniqli huquqshunoslar, olimlar va mutaxassislar kirdi. Oliy Kengashning o'ninch sessiyasida Komissiya tarkibi qisman yangilandi. Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan konstitutsiyaning g'oyaviy mag'zi, ya'ni konsepsiysi ustida ish boshlab yuborildi. Natijada uchta muqobil konsepsiya yaratildi: Respublika Fanlar Akademiyasi Falsafa va huquq instituti konsepsiysi, Siyosatshunoslik va boshqaruv instituti konsepsiysi hamda Prezident devoni yuridik bo'limi tayyorlagan konsepsiya. Ishchi guruh majlisida uchinchi konsepsiya asos uchun qabul qilindi. U qolgan ikki konsepsiyaning diqqatga sazovor g'oyalari bilan boyitilib, umumlashgan, puxta, yagona g'oyaviy asos shakliga keltirildi.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Loyihaning dastlabki varianti 1991-yil oktyabr-noyabriga qadar tayyorlab bo‘lin-di. U muqaddima, olti bo‘limga taqsim qilingan 158 moddadan iborat edi. Ushbu loyiha yuzaga kelayotgan paytda mamlakatimiz tarixida tub burilish yuz berdi. 1991-yil 31-avgustda “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy Qonun va O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida Oliy Kengash Bayonoti qabul qilindi.

Bu bilan respublika parlamenti mustaqil O‘zbekiston Respublikasi, suveren davlat qaror topganligini butun dunyoga e’lon qildi. Qonunda xalq hokimiyatchiligi, demokratik davlatchilik, inson huquqlari muqaddasligi, qonun ustuvorligi, hokimiyat bo‘linishi, mamlakatning hududiy yaxlitligi kabi muhim prinsiplar mustahkamlandi. Ushbu ilg‘or demokratik g‘oya va prinsiplar Konstitutsiya loyihasi mazmuniga ham singdirildi. Shunga qaramasdan, dastlabki loyiha hali mukammallik darajasidan ancha yiroq edi. Yanada jiddiyroq va talabchanlik bilan ishlash lozim edi.

1992-yil bahorida loyihaning 149 moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. Mamlakat Prezidenti ishtirokida Konstitutsiyaviy komissiyaning navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Majlisda Konstitutsiya loyihasi ustida olib borilgan ishlar to‘g‘risidagi axborot tinglandi. Ta’kidlanishicha, ishchi guruh O‘zbekiston xalq deputatlari, mehnat jamoalari rahbarlari, olimlar va mutaxassislар bilan hamkorlikda loyihaning uchinchи ko‘rinishini tayyorladi. Unda o‘zbek xalqining tarixiy, milliy va ma’naviy xususiyatlarini imkon qadar to‘laroq aks ettirishga harakat qilindi. Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan qabul qilingan qarorga binoan Konstitutsiya loyihasini uzil-kesil ishlab chiqish uchun ishchi guruh (komissiya) tuzildi. Uning tarkibi 25 kishidan iborat bo‘ldi. Guruh zimmasiga huquqiy demokratik davlat barpo etish jahon tajribasini, O‘zbekistonning demografik va ijtimoiy-siyosiy turmush tarzini, uning taraqqiyoti tajribasini har tomonlama umumlashtirish va uni Konstitutsiya loyihasida hisobga olish vazifasi yuklandi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi puxta ishlovlardan so‘ng Konstitutsiyaviy komissiya qarori bilan 1992-yil 26-sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e’lon qilindi. Mustaqil davlatimizning har bir fuqarosi, butun xalq ommasi Konstitutsiya loyihasini katta qiziqish va ozod Vatan uchun cheksiz iftixon tuyg‘ulari bilan kutib oldi. Bu o‘z-o‘zidan tushunarli holat. Zero, davlatimizning kelajagi, xalqimizning taqdiri ko‘p jihatdan Konsti-tutsiyamiz qanday bo‘lishiga bog‘liq, aniqrog‘i har qanday davlatning Konstitutsiyasi unda yashovchi xalqning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi nihoyatda keng ko‘lamli bo‘lib, yuksak ijodiy ko‘tarinkilik va ishchanlik kayfiyatida o‘tdi. U jamiyatimizda chinakam demokratiya qaror topishining yorqin namoyishi bo‘ldi. O‘z ruhi va mazmuni jihatidan muhokama davlat va jamiyat hayotining o‘ta muhim masalalari bo‘yicha butun xalqning umumiyl suhbatiga aylanib ketdi. Loyihaning qizg‘in hamda manfaatli muhokamasi xalqimizning o‘zi mustaqil O‘zbekiston Asosiy Qonunining bevosita ijodkori bo‘lganligini ko‘rsatdi. Umumxalq

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

muhokamasi qariyb uch oy davom etdi. Unda mamlakatda yashayotgan turli millat va elatga mansub bo‘lgan barcha katta yoshdagi aholi ishtirok etdi. Matbuotda, radio va televide niye orqali, korxona, muassasa hamda tashkilotlardi yig‘ilishlarda, auditoriyalarda qizg‘in muhokama, bahs-munozaralar bo‘lib o‘tdi. Loyiha Qoraqalpog‘iston Oliy Kengashi sessiyasida, viloyatlar, tumanlar va shaharlardagi faollar yig‘ilishlarida muhokama etildi. Oliy Kengash Rayosati, viloyat hokimliklari taklif va mulohazalarni muntazam ravishda umumlashtirib, yakuniy jadvallar tuzib, ularni Konstitutsiyaviy komissiyaga yuborib turdilar.

Shu davrda O‘zbekiston Respublikasi davlat huquqiy tajribasida muhim bir yangilik bo‘ldi. Uning mazmuni shundaki, Konstitutsiyaviy komissiya dastlab belgilagan ikki yarim oylik muddat mobaynida muhokama qilingan loyiha mehnatkashlar takliflari asosida qayta tuzatilib, 1992-yil 21-noyabrda muhokamani davom ettirish uchun ikkinchi marotaba matbuotda e’lon qilindi. Shunday qilib, umumxalq muhokamasi ikki bosqichda amalga oshirildi. Bu hol muhokama ishtirokchilarini siyosiy jihatdan faol qudratli turtki bo‘ldi. Uning maqsadi fuqarolarga muhokamadagi jonbozligi, mas’uliyati va samaralarini aniq ko‘rsatish-dan iborat edi. Umumxalq muhokamasi davomida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi. Shuningdek, Konstitutsiya komissiyasiga mingdan ziyod xatlar kelib tushdi. Ularda ixcham, lo‘nda, chuqr ma’noli va barchaga tushunarli bo‘lishiga yordam beradigan mulohazalar bayon etildi. Taklif va mulohazalarning tarkibiy qismlari fuqarolarning huquq va burchlari, shaxs daxsizligi, dinning jamiyatdagi o‘rni va roli, iqtisodiy huquqlar, jumladan, mulk huquqi, bozor munosabatlari va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, huquqni muhofaza qilish qoidalari va qoidalarga tegishli bo‘ldi. Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi O‘zbekiston xalqining irodasini bevosita aniqlash, shuningdek, muhokama davomida to‘plangan boy materialni har tomonlama va chuqr o‘rganib, umumlashtirib, uni mujassam davlat irodasi tarzida Asosiy Qonunda ifodalash imkonini berdi. Konstitutsiya xalqimizning siyosiy donoligi va tafakkuri mahsuli bo‘ldi.

1992-yil 8-dekabrdan 12-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi bo‘ldi. Unda «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish haqida»gi masala ko‘rildi. Bu xususda Konstitutsiyaviy komissiya Raisi, birinchi Prezident I. A. Karimov ma’ruza qildi. Ushbu ma’ruzada sessiya muhokamasiga havola qilingan O‘zbekistonning Asosiy Qonuni, respublikada avvalgi yillarda qabul qilgan qonunlardan farqli o‘laroq, demokratik yo‘l bilan tayyorlangan bo‘lib, unda yillar davomida sinovdan o‘tgan umuminsoniy qadriyatlar o‘z aksini topganligi, u ko‘plab taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribalarini o‘ziga singdirganligi alohida uqitildi. «Shuning uchun ham mazkur Konstitutsiya har qanday yetakchi mamlakatning konstitutsiyasi bilan bahslasha olishi mumkin», deb ta’kidlandi. Unda sessiyada deputatlar loyiha 80 ga yaqin o‘zgartirish, qo‘sishimcha va anqliklar kiritdilar. Jumladan, loyihadagi Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo‘jalik sudlarining vakolat muddati o‘n yildan besh yilga tushirildi. Oliy Kengash 84-moddani quyidagi yangi qismi bilan

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

to‘ldirdi: «Oliy Majlis Raisi va uning o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili hisobot berib turadilar». 78-moddaning 8-bandiga esa shunday jumla qo‘sildi: «Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish» va hokazo. Albatta, deputatlar takliflarining rad etilganlari, loyiha qo‘silmaganlari ham bo‘ldi. Masalan, deputat V. A. Kozlov Oliy Majlis ikki palatadan iborat bo‘lishini taklif etdi. Biroq bu taklif qabul qilinmadi, tajribada sinalgan bir palatalik tizim saqlab qolindi. Sababi, O‘zbekistonda bunday an’ana bo‘lmaganligi, va shuningdek, mamlakatda xalqlar o‘rtasida barqarorlik, millatlararo munosabatlar, milliy totuvlik yo‘lga qo‘yilganligi bilan ajralib turadi. Gap ko‘p pog‘onali parlament tuzishda emas, balki davlatning dono, puxta o‘ylangan milliy siyosatida, asrash va rivojlantirish zarur bo‘lgan xalq an‘analarida edi. Shuning uchun O‘zbekistonda tuzilajak parlament bir palatali deb lozim topildi. Shunday qilib, suveren demokratik O‘zbekiston Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Asosiy Qomusimiz davlat, mustaqilligimizning mevasidan, mahsulidan dunyoga keldi va hurligimiz, ozod-erkinligimiz qalqoni sifatida yashamoqda. Konstitutsiya kelajagi buyuk O‘zbekistonning qad rostlashi uchun, adolatli huquqiy davlat barpo etish uchun mustahkam huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, Konstitutsiyaviy komissiyaning Raisi I. A. Karimov Oliy Kengashning o‘n birinchi sessiyasida Konstitutsiya loyihasi yuzasidan so‘zlagan nutqida shunday deb ta’kidladi: “Xur O‘zbekistonimizning tarixida birinchi Konstitutsiyani qabul qilish jumxuriyatimizning yangidan tug‘ilishi, huquqiy mustaqilligimizga mustahkam poydevor qurishdir... Konstitutsiyamiz asosiy qonunimiz sifatida davlatni davlat qiladigan, millatni millat qiladigan qonunlarga asos bo‘lishi muqarrar”.

Sessiya ishtirokchilari yakdillik bilan Konstitutsiyani qabul qildilar. Konstitutsiya 6 bo‘lim, 128 moddadan iborat bo‘ldi. Faqat milliy istiqlol, davlat mustaqilligiga erishish tufayli O‘zbekiston Respublikasining tamomila yangi, inson manfaatlarini, haq-huquqini himoya qiluvchi chinakam demokratik Konstitutsiyasini yaratishdek ulkan tarixiy imkoniyat vujudga keldi. O‘zbekiston Respublikasi XII chaqiriq Oliy Kengashining 1992-yil 8-dekabrdagi o‘n birinchi sessiyasi tomonidan O‘zbekiston birinchi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakat tarixida olamshumul voqeа edi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilish tarxi, mamlakatning mustaqillikka erishishidan keyingi muhim bosqichlardan biri bo‘lib, demokratik islohotlarning asosini tashkil etadi. Ushbu maqoladan biz Asosiy Qonunimiz bo‘lmish konstitutsiyamizning qabul qilinish jarayonlari nihoyatda puxta va mukammal amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu Konstitutsiya, o‘zbek xalqining qadriyatlarini hamda urf-odatlari asosida yaratilgan desak maqsadga muvofiqdir.

Keyinchalik, O‘zbekiston mustaqilligi va taraqqiyoti yo‘lida konstitutsion islohotlar davom etib, 2021 yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan yangi Konstitutsion

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

islohotlar e'lon qilindi. Bu jarayonning asosiy maqsadi – mamlakatni yanada demokratlashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini yanada kengaytirish, mamlakat Konstitutsiyasini xalqaro standardlarga moslashtirish islohotlari keng jamoatchilik va ekspertlar bilan hamkorlikda amalga oshirildi va O'zbekiston tarixida yangi bir bosqichni boshlab berdi. Shu tarzda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, mamlakatning huquqiy poydevori sifatida, davlatchilik tarixining muhim hujjatiga aylanish bilan birga, mamlakatda o'tgan yillar davomida amalga oshirilgan demokratik islohotlarni o'zida aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Konstitutsiyamizning yaratilish tarixi: https://www.researchgate.net/publication/367066448_Ozbekiston_respublikasi_konstitutsiyasing_yaratilish_tarixi_va_ahamiyati (ushbu havoladan 03.04.2025-yilda foydalanildi).
2. KONSTITUTSIYAMIZNING YARATILISHI TARIXI – тема научной статьи по праву читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка: <https://cyberleninka.ru/article/n/konstitutsiyamizning-yaratilishi-tarixi> (ushbu havoladan 03.04.2025-yilda foydalanildi).
3. 11-sinf O'zbekiston tarixi darslik: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririysi: Toshkent - 1998.